



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 470 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
Sabina Saitmurodova Olim qizi	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
Komolova Iroda Xamidullayevna	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
G'aniyeva Maloxat Odilovna	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
Shasaidova Lola Shamaksudovna	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
Сейтова З. П.	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
Okilova Kamola Sadulloevna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
Davronova Zarrina Baxtiyorovna	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
Musayeva Aziza Ibrohim qizi	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
Sharipova Shaxnoza Xasanovna	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
Ibragimova Venera Azadovna	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
Raxmonova Gavhar Nuritdinovna	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
Samarova Shoxista Rabidjanovna	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari	335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna	
Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari	340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna	
Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti	346
Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li	
Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi	353
Axmedova Dildora Olimjonovna	
Rus tilidagi mediamatnlr bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash	359
Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li	
Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati	365
Achilova Durdona	
Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi	370
Niyozova Dilfuza Rustam qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	375
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish	380
X. I. Malikova	
Onkologik bemorlarga psixologik yordam ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari va ularning hayot sifatiga ta'siri	385
Niyazova Nilufar Farxadovna	
Zamonaviy ta'lim muassasalarida axborot-pedagogik ma'lumotlar bazasini yaratish va o'quv jarayonini monitoring qilishda undan samarali foydalanish metodikasi	391
Mirzayeva Dilnoza Ulug'bek qizi	
Моделирование текста как средство развития речи младших школьников: сопоставительный анализ отечественных и зарубежных исследователей	395
Каипова Гузель Ильдаровна	
Qisqa masofaga yuguruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda kompleks mashg'ulot vositalarining samaradorligi	400
Ruzmetov Furqat Ikramovich	
Англоязычные заимствования в современном русском языке: функции и механизмы адаптации	406
Мажидова А. О.	
Oliy ta'limda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirishning pedagogik asoslari tahlili	411
Abduraimov Shaxboz Panji o'g'li	
XXI asr kompetensiyalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishda texnologiya fani roli	417
Bozorova Lola	
MELQO modeli asosida 6-7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rganish jarayonida tasavvur rivojlanganligini baholash metodikasi	420
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	

Hozirgi jamiyat sharoitida yosh kelin-kuyovlarning yangi oilaviy muhitga moslashuv jarayoni.....	426
Nazirqulova Nodira G'anijanovna	
Epistemik tafakkurning ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni	429
Raximova Aziza Davranbekovna	
Matematika ta'limida steam loyihalarini tashkil etishning nazariy-metodik modeli	432
Umarqulov Abdusattar Amanboyevich	
Педагогические и психологические основы формирования компетенций в сфере фриланса у учащихся общеобразовательных школ.....	441
Пурханова Толганай Жуманазаровна	
Talaba-qizlarda sun'iy intellekt savodxonligi va liderlik kompetensiyalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish texnologiyasi.....	445
Davlatjonova Mohidil Ulug'bek qizi	
Ko'zi ojiz talabalarni cholg'u chalishga o'rgatishda Brayl notasining o'rni va pedagogik samaradorligi	449
Raximov Yorqinjon Nuriddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishni boshqarishning tashkiliy-pedagogik jarayonlari	456
Kimsanova Rahnamo Solijonovna	
Tarixiy tafakkur tushunchasi, mazmun-mohiyati hamda pedagogik asoslari	461
Ashurova Gulnozaxon Asqaraliyevna	
Autizmga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va ularni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash	465
Usmanova Nilufar Ilhom qizi, Utbasarova Umida Mexmanovna	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini problemali ta'lim (PBL) texnologiyasi asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (adabiyotlar sharhi).....	470
Keldiyorova Shoxida Xusniddin qizi	
Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar pedagogik mahoratini rivojlantirish modeli	475
Botirova Mohiraxon Olimjanovna	
I. Yusupovning "To'maris" poemasi o'qitish usullari	481
Allayar Dermenov	
Maktablarda uyali aloqa vositalaridan foydalanishni tartibga solish masalalari.....	485
Egamova Ma'suma Inomiddinovna	
"Loyiha - izlanish – rivojlanish" (LIR) modelining konseptual asoslari va tuzilmasi	491
Suyunova Marjona Xudoysukur qizi	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va zamonaviy tendensiyalari: ilmiy adabiyotlar tahlili	495
Xalimova S. A.	
Ways of Teaching Vocabulary Using Mobile-Assisted Language Learning (MALL) in English Language Teaching: A Review.....	501
Muborak Azimova	
Transformativ pedagogikaning konseptual modeli va ta'limdagi imkoniyatlari	510
Sh. E. Yakubova	

TRANSFORMATIV PEDAGOGIKANING KONSEPTUAL MODELI VA TA'LIMDAGI IMKONIYATLARI

Sh. E. Yakubova

Urganch davlat pedagogika instituti p.f.f.d. (PhD)., dots

Annotatsiya: Mazkur maqolada transformativ pedagogikaning nazariy-konseptual asoslari, uning falsafiy-metodologik ildizlari va zamonaviy ta'lim amaliyotidagi pedagogik imkoniyatlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda Jek Mezirouning transformativ ta'lim nazariyasi, Pol Freyrening tanqidiy pedagogika konsepsiyasi hamda Devid Kolbning tajribaviy ta'lim modeli o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqilgan. Ilmiy adabiyotlar kontent tahlili, qiyosiy tahlil va sintez metodlaridan foydalanilgan holda transformativ pedagogikaning asosiy konseptual komponentlari – tanqidiy refleksiya, mazmun sxemalari va mazmun istiqbollarning o'zgarishi, ratsional dialog hamda perspektiv transformatsiya bosqichlari aniqlangan. Natijalar transformativ yondashuvning o'quvchi shaxsini faol subyekt sifatida shakllantirishdagi, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi hamda ta'lim jarayonini demokratlashtirishdagi salohiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu paradigmani milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning imkoniyatlari va cheklovlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: transformativ pedagogika, transformativ ta'lim nazariyasi, tanqidiy refleksiya, mazmun istiqboli, perspektiv transformatsiya, konstruktivizm, andragogika, ratsional dialog.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the theoretical and conceptual foundations of transformative pedagogy, its philosophical and methodological roots, and its pedagogical potential in contemporary educational practice. The study examines Jack Mezirow's Transformative Learning Theory, Paulo Freire's concept of Critical Pedagogy, and David Kolb's Experiential Learning Model within an integrated theoretical framework. Using content analysis of scientific literature, comparative analysis, and synthesis, the research identifies the core conceptual components of transformative pedagogy, including critical reflection, changes in meaning schemes and meaning perspectives, rational discourse, and the stages of perspective transformation. The findings demonstrate the potential of the transformative approach to develop learners as active participants in the educational process, foster critical and independent thinking, and promote the democratization of education. Furthermore, the article discusses the opportunities and limitations of implementing this paradigm within the national education system.

Key words: transformative pedagogy, transformative learning theory, critical reflection, meaning perspective, perspective transformation, constructivism, andragogy, rational discourse.

Аннотация: В данной статье системно проанализированы теоретико-концептуальные основы трансформативной педагогики, её философско-методологические истоки и педагогический потенциал в современной образовательной практике. В исследовании теория трансформативного обучения Джека Мезиру, концепция критической педагогики Пауло Фрейре и модель опытного обучения Дэвида Колба рассмотрены во взаимосвязи. На основе методов контент-анализа научной литературы, сравнительного анализа и синтеза выявлены ключевые концептуальные компоненты трансформативной педагогики: критическая рефлексия, изменение смысловых схем и смысловых перспектив, рациональный диалог, а также этапы трансформации перспективы. Полученные результаты свидетельствуют о значительном потенциале трансформативного подхода в формировании личности обучающегося как активного субъекта образовательного процесса, развитии критического и самостоятельного мышления, а также демократизации образовательного процесса. Кроме того, обсуждаются возможности и ограничения внедрения данной парадигмы в национальную систему образования.

Ключевые слова: трансформативная педагогика, теория трансформативного обучения, критическая рефлексия, смысловая перспектива, трансформация перспективы, конструктивизм, андрагогика, рациональный диалог.

KIRISH

XXI asr ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchi va talabalarda nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki ularning dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. An'anaviy transmissiv pedagogika, ya'ni bilimni tayyor holda uzatishga asoslangan yondashuv, tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o'z samaradorligini yo'qotib



bormoqda. Ushbu vaziyat ta'lim nazariyasi va amaliyotida yangi paradigmalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, ularning eng ta'sirchanlaridan biri transformativ pedagogika hisoblanadi.

Transformativ pedagogika g'oyasi ilk bor amerikalik sotsiolog va ta'lim nazariyotchisi Jek Mezirou tomonidan 1978-yilda ilgari surilgan bo'lib, u kattalar ta'limi (andragogika) sohasidagi tadqiqotlar asosida shakllangan. Mezirouning fikricha, haqiqiy ta'lim shaxsning avvalgi tajribaga asoslangan "mazmun sxemalari" va "mazmun istiqbollari"ni tanqidiy qayta ko'rib chiqishi, ya'ni chuqur kognitiv hamda emotsional o'zgarishlarni boshdan kechirishi orqali sodir bo'ladi. Bunday yondashuv nafaqat kattalar ta'limida, balki umumiy o'rta, oliy va kasbiy ta'lim tizimlarida ham keng qo'llanila boshlandi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'quvchi shaxsini markazga qo'yuvchi, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasida belgilangan ustuvor vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, transformativ pedagogikaning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uning amaliy imkoniyatlarini milliy ta'lim kontekstida tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi transformativ pedagogikaning nazariy-konseptual asoslarini tizimli tahlil qilish hamda uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- transformativ pedagogikaning falsafiy-metodologik ildizlarini ochib berish;
- asosiy nazariy konsepsiyalarni (Jek Mezirou, Paulo Freyre, Devid Kolb) qiyosiy tahlil qilish;
- transformativ ta'lim jarayonining bosqichlarini tavsiflash;
- ushbu yondashuvning zamonaviy ta'lim amaliyotidagi qo'llanilish imkoniyatlari va mavjud cheklovlarini aniqlash.

Shuni ta'kidlash lozimki, transformativ pedagogika g'oyalari nafaqat G'arb ta'lim tizimlarida, balki jahon miqyosida turli madaniy-ta'limiy kontekstlarda ham moslashtirilib qo'llanilmoqda. Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi va postsovet mamlakatlari ta'lim tadqiqotchilari ushbu paradigmani mahalliy qadriyatlar tizimi hamda ta'lim an'analari bilan uyg'unlashtirish yo'llarini izlab kelmoqda. Bu esa transformativ pedagogikaning universal nazariy asosga ega bo'lgani holda, amaliy tatbiqda kontekstga moslashuvchan xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlil transformativ pedagogikaning zamonaviy ta'lim amaliyotida bir qator muhim imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Birinchidan, ushbu yondashuv o'quvchi va talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish hamda asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim paradigmasining asosiy talablariga to'liq mos keladi.

Ikkinchidan, transformativ pedagogika o'quv jarayonini demokratlashtiradi: o'qituvchi bilim beruvchi "markaz" o'rnidan chiqib, ta'lim oluvchi bilan teng huquqli dialog ishtirokchisi va fasilitator vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, ushbu yondashuv shaxsning ijtimoiy-emotsional intellektini rivojlantirishga hissa qo'shadi, chunki tanqidiy refleksiya va ratsional dialog jarayonlarida o'quvchi nafaqat o'z fikrlarini, balki his-tuyg'ularini ham anglash va boshqarish ko'nikmasini egallaydi.

To'rtinchidan, transformativ pedagogika kattalar ta'limi, kasbiy qayta tayyorlash va uzluksiz ta'lim (lifelong learning) tizimlarida alohida samarali bo'lib, bu sohalarida shaxsning hayotiy va kasbiy tajribasiga tayangan holda ish yuritish ushbu paradigmaning tabiiy afzalligidir.

Tahlil natijalariga ko'ra, transformativ pedagogika g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishning bir qator pedagogik strategiyalari mavjud: muammoli o'qitish (problem-based learning), keys-stadi metodi (case study), reflektiv kundaliklar yuritish, guruhli muhokamalar va dialogik seminarlar, loyihaviy faoliyat hamda mentorlik va kouching usullari. Bu strategiyalarning barchasi o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol, tanqidiy fikrlovchi va o'z tajribasini anglovchi subyektga aylantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, reflektiv kundalik yuritish amaliyoti o'quvchiga o'z fikrlash jarayonini vaqt davomida kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa metakognitiv ko'nikmalarning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi. Transformativ pedagogikaning boshqa nazariyalar bilan nisbati alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Transformativ pedagogikaning o'ziga xos o'rnini aniqroq tasavvur etish uchun uni bir qator qardosh nazariyalar bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy bixevioristik yondashuv bilim va ko'nikmalarni tashqi rag'batlantirish orqali shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, transformativ pedagogika shaxsning ichki, ongli va irodaviy o'zgarishiga tayanadi. Kognitiv konstruktivizm bilimning individual faoliyat jarayonida qurilishini asos qilib olsa, transformativ pedagogika bu jarayonga ijtimoiy dialog va emotsional komponentni qo'shadi. Bu esa uni ijtimoiy konstruktivizmga yaqin-



lashtiradi. Ammo ijtimoiy konstruktivizmdan farqli o'laroq, transformativ pedagogika o'zgarishning sifat ko'rsatkichi sifatida shaxsning mazmun istiqbolidagi tub burilishni, ya'ni "perspektiv transformatsiya"ni alohida ajratib ko'rsatadi.

Andragogika nazariyasi (M. Noulz) bilan qiyoslaganda ham muhim mushtaraklik kuzatiladi: ikkala yondashuv ham kattalar ta'limida shaxsning hayotiy tajribasini asosiy resurs sifatida qaraydi. Biroq andragogika ko'proq ta'lim jarayonini tashkil etishning amaliy tamoyillariga (o'z-o'zini boshqarish, muammoga yo'naltirilganlik) e'tibor qaratsa, transformativ pedagogika bu jarayonning ichki, psixologik-kognitiv mexanizmlarini, ya'ni shaxs ongida sodir bo'ladigan chuqur qayta qurilish jarayonini tadqiq etishga qaratilgan. Shu tariqa transformativ pedagogika ushbu yondashuvlarni birlashtiruvchi, ularga nazariy chuqurlik baxsh etuvchi konseptual ko'priq vazifasini bajaradi, deyish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, u sifat tadqiqoti metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarning kontent tahlili, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv, sintez va umumlashtirish metodlari. Tadqiqot manbai sifatida Jek Mezirouning transformativ ta'lim nazariyasiga bag'ishlangan asosiy asarlari, Paulo Freyrening tanqidiy pedagogika bo'yicha ishlari, Devid Kolbning tajribaviy ta'lim modeli, shuningdek, so'nggi yigirma yil davomida chop etilgan xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallardagi tegishli maqolalar tanlab olindi. Manbalarni tanlashda ularning nazariy asoslanganligi, iqtibos qilinganlik darajasi va mavzuga bevosita aloqadorligi mezon sifatida qabul qilindi.

Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi:

*Birinchi bosqich*da transformativ pedagogikaning asosiy nazariy konseptlari (tanqidiy refleksiya, mazmun istiqbollari, perspektiv transformatsiya, ratsional dialog) ajratib olindi va ularning mazmun-mohiyati ochib berildi.

*Ikkinchi bosqich*da ushbu konseptlarning zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etilish imkoniyatlari, jumladan, milliy ta'lim tizimi kontekstidagi qo'llanilish salohiyati hamda mumkin bo'lgan qiyinchiliklar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transformativ pedagogika bir necha falsafiy va psixologik yo'nalishlarning kesishmasida shakllangan. Uning nazariy negizini uchta asosiy manba tashkil etadi:

- *birinchidan*, konstruktivistik ta'lim nazariyasi, unga ko'ra bilim tashqaridan tayyor holda uzatilmaydi, balki shaxsning o'z faoliyati jarayonida faol ravishda quriladi;
- *ikkinchidan*, Yurgen Xabermasning kommunikativ harakat nazariyasi, unda ratsional dialog va o'zaro tushunish orqali ijtimoiy o'zgarishlarga erishish g'oyasi ilgari surilgan;
- *uchinchidan*, Pol Freyrening "Ozod qiluvchi ta'lim" (Pedagogy of the Oppressed) konsepsiyasi, unga ko'ra ta'lim shaxsni ijtimoiy tengsizlik va zulmdan xabardor qilish hamda uni faol fuqarolik pozitsiyasiga olib chiqish vositasidir.

Jek Mezirou ushbu g'oyalarni sintez qilib, transformativ ta'lim nazariyasini yaratdi. U ta'limni shunchaki yangi ma'lumot olish jarayoni emas, balki shaxsning o'z tajribasini talqin qilish uchun foydalanadigan "mazmun sxemalari" (meaning schemes) va kengroq "mazmun istiqbollari" (meaning perspectives)ning tubdan o'zgarishi sifatida tavsiflaydi. Mazmun istiqbollari – bu shaxs bolalikdan boshlab oilaviy tarbiya, madaniy muhit va ijtimoiy tajriba ta'sirida shakllantirgan, dunyoni idrok etish va baholashning chuqur, ko'pincha ongsiz ravishda qabul qilingan ramkalaridir. Transformativ ta'lim aynan shu ramkalarni tanqidiy tekshiruvdan o'tkazishga qaratilgan.

Tahlil natijalari transformativ pedagogikaning quyidagi to'rtta o'zaro bog'liq konseptual komponentini ajratib ko'rsatish imkonini berdi:

1. **Tanqidiy refleksiya (critical reflection)** – shaxsning o'z e'tiqodlari, taxminlari va qadriyatlarining kelib chiqish manbalarini hamda asosililigini ongli ravishda tekshirish jarayoni. Mazmun istiqbollarinig o'zgarishi (perspective transformation) – shaxsning dunyoqarashi va o'zini o'zi anglashidagi tub, sifat jihatidan chuqur o'zgarish.
2. **Ratsional dialog (rational discourse)** – teng huquqli ishtirokchilar o'rtasida ochiq, dalillarga asoslangan muloqot bo'lib, unda turli nuqtai nazarlar erkin muhokama qilinadi.
3. **Dezorientatsiyalovchi dilemma (disorienting dilemma)** – shaxsning avvalgi qarashlari bilan mos kelmaydigan yangi tajriba yoki vaziyat bo'lib, u transformativ jarayonning boshlanish nuqtasi hisoblanadi.

Devid Kolbning tajribaviy ta'lim modeli ushbu jarayonning siklik tabiatini yanada aniqroq izohlaydi: konkret tajriba → refleksiv kuzatish → abstrakt konseptuallashtirish → faol eksperimentlashtirish bosqichlarining doimiy takrorlanishi orqali shaxs o'z bilim va tajribasini chuqurlashtirib boradi. Ushbu model transformativ pedagogikaning amaliy metodikasiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi.



Mezirow o'z tadqiqotlarida transformativ ta'lim jarayonini bir necha izchil bosqichlarga ajratadi. Umumlashtirilgan holda ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- dastlab shaxs o'zining mavjud qarashlariga zid keladigan dezorientatsiyalovchi dilemma bilan to'qnashadi;
- so'ngra u o'z his-tuyg'ulari va taxminlarini tanqidiy baholaydi;
- keyingi bosqichda shaxs o'zgacha nuqtai nazarga ega boshqa insonlar bilan yangi rollar va munosabatlarni muhokama qiladi;
- bu jarayon yangi harakat yo'nalishini rejalashtirish, zarur bilim va ko'nikmalarni egallash, yangi rolni sinab ko'rish hamda o'zgargan istiqbol asosida hayotga integratsiyalashish bilan yakunlanadi.

Ushbu bosqichlar chiziqli emas, balki takrorlanuvchi va o'zaro ta'sirlashuvchi xarakterga ega bo'lib, ular ta'lim jarayonini nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy o'lchovlarda ham qamrab oladi.

Olingan natijalar transformativ pedagogikani boshqa zamonaviy ta'lim nazariyalari, xususan, ijtimoiy konstruktivizm va kompetensiyaviy yondashuv bilan qiyoslash imkonini beradi. Ijtimoiy konstruktivizm singari, transformativ pedagogika ham bilimning ijtimoiy muloqot jarayonida qurilishini tan oladi. Biroq undan farqli o'laroq, u shaxsning chuqur qadriyatlar va e'tiqodlar tizimidagi sifat o'zgarishlariga alohida urg'u beradi. Kompetensiyaviy yondashuv bilan qiyoslaganda esa transformativ pedagogika nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki shaxsning refleksiv va tanqidiy ongini rivojlantirishni ham ustuvor vazifa deb biladi. Bu esa mazkur ikki yondashuvning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, transformativ pedagogikani milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishda bir qator obyektiv qiyinchiliklar mavjud.

Birinchidan, an'anaviy o'quv dasturlari ko'pincha qat'iy standartlashtirilgan bo'lib, bu tanqidiy dialog va ochiq muhokama uchun zarur bo'lgan vaqt hamda metodik erkinlikni cheklaydi.

Ikkinchidan, o'qituvchilarning o'zlari fasilitatorlik kompetensiyalariga ega bo'lishi talab etiladi. Bu esa maxsus kasbiy tayyorgarlik va uzluksiz malaka oshirishni taqozo etadi.

Uchinchidan, transformativ ta'lim jarayoni o'quvchida ma'lum darajadagi psixologik tayyorlikni, o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishga ochiqlikni talab qiladi. Bu esa yosh o'quvchilar bilan ishlashda qo'shimcha pedagogik mahorat va ehtiyotkorlikni zarur qiladi.

Shunga qaramay, ko'plab tadqiqotchilar transformativ pedagogika elementlarining alohida o'quv modullari, loyihaviy ta'lim, keys-stadi (case study) metodi va reflektiv kundaliklar shaklida bosqichma-bosqich joriy etilishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bunday yondashuv milliy ta'lim tizimining mavjud tuzilmaviy sharoitlarini hisobga olgan holda transformativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishning maqbul yo'li bo'lishi mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari transformativ pedagogikaning nazariy jihatdan puxta asoslangan, falsafiy-metodologik ildizlarga ega hamda amaliy ahamiyati yuqori bo'lgan zamonaviy pedagogik paradigma ekanligini ko'rsatdi. Uning markazida shaxsning tanqidiy refleksiya, ratsional dialog va tajribaviy o'rganish orqali o'z dunyoqarashini chuqur qayta ko'rib chiqishi yotadi. Transformativ pedagogikaning pedagogik imkoniyatlari, avvalambor, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ta'lim jarayonini demokratlashtirish hamda shaxsning ijtimoiy-emotsional yetukligini oshirishda namoyon bo'ladi.

Ayni paytda ushbu yondashuvni to'liq va samarali joriy etish uchun o'quv dasturlarining moslashuvchanligini oshirish, o'qituvchilarning fasilitatorlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda bosqichma-bosqich, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan metodik yondashuvni ishlab chiqish zarur. Kelgusi tadqiqotlarda transformativ pedagogika elementlarining aniq fan yo'nalishlari bo'yicha amaliy sinovdan o'tkazilishi hamda uning o'quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini empirik jihatdan o'lchash muhim ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J. G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
3. Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991.
4. Mezirow J. Learning as Transformation: Critical Perspectives on a Theory in Progress. – San Francisco: Jossey-Bass, 2000.
5. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970.
6. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice-Hall, 1984.
7. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press, 1984.
8. Taylor E. W. Transformative Learning Theory: A Neurobiological Perspective of the Role of Emotions and Unconscious Ways of Knowing // International Journal of Lifelong Education. – 200.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.